



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**  
**O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI**  
**NAVOIY VILOYAT O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR**  
**TA'LIMI BOSHQARMASI**

**"AKADEMIK LITSEYLARDA TA'LIM-TARBIYA  
JARAYONINI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH VA  
TAKOMILLASHTIRISHDA O'QITUVCHILAR  
SALOHIYATINI YANADA OSHIRISH" MAVZUSIDAGI**

**RESPUBLIKA O'QUV-AMALIY  
SEMINARI TO'PLAMI**

## **Avtomatik tahrir tizimining ndki huzuridagi 2-son akademik litseyi o'quvchilari o'rzasida targ'ib qilinishi.**

*Navoiy Davlat konchilik instituti akademik  
litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash  
bo'limi xodimi*

*M.A.Abjalova*

Bugungi kunda hayotimizni kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar zamonaviy elektron texnologiya uning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Kompyuter dasturlari ish faoliyatini sifatining va tezkorlikning oshishiga sabab bo'layotgani uchun sohalarning yangi yo'nalishlari yuzaga kelmoqda.

"Kompyuter lingvistikasi" fanining maqsadi tabiiy tillarning matematik modellarini qurish, lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. "Kompyuter lingvistikasi" fani oldida turgan asosiy masalalar esa umumiyl Tilshunoslikning formal va aksiomatik modellarini qurish va konkret tillarning matematik modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu modellar asosida matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi, kompyuter lug'atlari, ona tili va chet tillarga o'rgatish hamda bilimlarni baholash bo'yicha kompyuter dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi<sup>2</sup>.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida o'tilayotgan "Kompyuter lingvistikasi" fani o'rganayotgan muhim masalalardan biri o'zbek tilidagi matnlarni kompyuter vositasida tahrir qilish masalasidir. Bizga ma'lumki, bu borada ko'plab rivojlangan davlatlarda milliy tili yuzasidan avtomatik tahrir dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'zlarining keng masshtabdagi foydalanuvchilariga ega. Har bir kompyuter qurilmasidagi MS DOS operatsion sistemasiga joylangan rus va ingliz tillaridagi matnlarni avtomatik tahrir qiluvchi dasturlarning mavjudligi fikrimiz dalilidir.

O'zbek tilining ham operatsion sistemaga kiritilishi hamda foydalanuvchilar tomonidan faxr va iftixor bilan kutib olinishi uchun avtomatik tahrir dasturining lingvistik modullari juda puxta va mukammal ishlab chiqilishi lozim. Shu maqsadda ushu dolzarb masalani o'quvchilar orasida targ'ib qilish marra sari tashlangan yana bir qadamdir.

Bundan ikki maqsad ko'zlangan:

1. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish.
2. O'quvchilar orasida shu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shishga tayyor iqtidorli yoshlarni topish.

Necha yillardan beri o'zining to'liq yechimini topolmayotgan savodxonlik muammosi bugungi kunda ham o'z dolzarblilagini yo'qtgani yo'q. O'quvchi yoshlarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish natijasida savodxonlikni oshirish maqsadida ta'llim tizimida qator chora-tadbirlar qilingan va ularning joriy etilishi davom etmoqda. Shunday izlanishlardan biri matnlarni avtomatik tahrir qilish dasturining lingvistik ta'minoti ustidagi tadqiqot ishlaridir. Bundan ko'zlangan

maqsad: matnlarni kompyuterga kiritish jarayonida foydalanuvchi yozgan matndagi dasturning avtomatik ravishda bajarayotgan amallari natijasida xato so'zning o'sha vaqtning o'zida aniqlanishi va so'zning to'g'ri varianti taklif qilinishi natijasida foydalanuvchi o'z vaqtida xatosini to'g'rileydi va keyingi o'rinda shu so'zni to'g'ri yozadi.

NDKI huzuridagi 2-sonli akademik litseyining bir guruh o'quvchilariga "savodlilik" tushunchasiga izoh berildi, yo'l qo'yilayotgan imloviy xatolar lavhalar yordamida yoritildi va to'g'ri yozish qoidalarini tushuntirish orqali ularga tuzatishlar kiritildi.

O'tkazilgan targ'ibot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Uzlusiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida imlo qoidalarini o'quvchilar ongiga singdirib borish lozim.

2.Ta'lim tizimida har bir o'quvchida matnlarni ham uslubiy, ham orfografik, ham mazmun jihatdan to'g'ri, aniq, mantiqiy yozish ko'nikmasini shakllantirishga erishish kerak.

3.Yosh avlod vakillarini MS DOS operatsion sistemasining Word matn tahrirlash dasturidan to'g'ri va unumli foydalanishni o'rgatib borish zarur.

4.Word matn tahrirlash dasturi tizimiga o'zbek tilining formal grammatikasi asosida yaratilgan lingvistik ta'minotni kiritishdan ko'zlangan maqsadni keng targ'ib qilish kerak.

5.Avtomatik tahrirlash dasturining lingvistik ta'minotini yaratish mezonlarini tushuntirib berish zarur.

Savod – insonning madaniy bezagi. Shu bois ham biz nafaqat og'zaki nutqimizga, balki yozma nutqimizga ham jiddiy e'tiborda bo'lishimiz kerak. Milliy tilimizning boyligini, har bir so'zning qadr-qimmati borligini anglatish, savodxonlikning pasayishiga yordam bersa, o'zbek tilining yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan holatlarni asosli materiallar orqali yoritish, o'quvchilarda sergaklikni oshiradi.